
SEMINARDA



Qo'shtepa tumanidagi 14-sonli DMTTda davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarida xujjatlar bilan ishlashda davlat standartlari asosida tizimli ishlashni yanada kuchaytirish maqsadida o'quv-amaliy seminar bo'lib o'tdi.

Ushbu seminar Maktabgacha ta'lim bo'limi jismoniy va yuridik shaxslarni murojaatlari bilan ishlash bo'yicha mutaxassisi Sh.Tojimatova tomonidan olib borildi.



Seminar davomida tashkilotda xujjatlar bilan tizimli ishlash, fuqarolar murojaatlari, Prezident farmonlari, qarorlari, Vazirlar Mahkamasi qarorlari, dasturlar va boshqa turli tashkilotlardan kelayotgan xatlarning ijrosini o'z vaqtida sifatli tarzda ta'minlash, ijrochi vazifasi nimalardan iborat ekanligi to'g'risida amaliy mashg'ulotlar o'tkazildi.

Turli bahs-munozaralarga boy o'tgan seminarda ishtirokchilarga buyruqlar, bayonlar, ma'lumotlar va chora tadbirlar dasturlarini tashkilotda qay tarzda yuritib borilishi bo'yicha guruhlariga bo'lingan xolda amaliy mashg'ulotlar olib borildi.

Qo'shtepa tumani hokimligi Axborot xizmati.

[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)

[Facebook,](#)

2021-04-01 13:41:24